

YANGI YILDA YANGI ORZULAR BILAN

Qosimova Iroda Ma'murjonovna

Toshkent viloyati Yangiyo'l shahar

6-umumita 'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi



2-“D” sinfi uchun

“Kitob o'qib, murodga yeting” mavzusida tayyorlagan tadbir

**DARS ISHLANMASI**

**TASDIQLAYMAN”**

Maktab direktori: \_\_\_\_\_

Sana: 23-dekabr 2022-yil

Sinf: - 2- “D”

**Mavzu:** Yangi yilda yangi orzular bilan

**Maqsad:** a) o'quvchilarga bayram orqali kitobga muhabbat, internet olamidan oqilona foydalanish haqida noan'anaviy tarzda keng qamrovli bilim berish;

b) o'quvchilarda mehnatsevarlik, vaqtdan to'g'ri foydalanish hissini o'stirish;

d) o'quvchilarning hozirgi zamon imkoniyatlaridan foydalana olish ko'nikmalarini takomillashtirish.

Xo'roz qichqirig'i eshitiladi. Musiqa yangrab sahnaga ohista qadamlar bilan yuzidan nur yog'ilib turgan ertakchi kampir chiqib keladi.

Ertaakchi kampir

-Salom, bolajonlar, kirib kelayotgan yangi 2023 yilingiz mubo-rak bo'lsin! Bu bayram aslida ertaklar, mo'jizalar bayramidir.

Aytgancha, o'qishlaringiz a'lomi, kundaligingiz “5” baholarga to'lib ketgandir,a? Bilaman, o'g'il-qizlarim, sizlar, kelajagi porloq Vatanning ertasi bo'lgan eng aqli, kitobsevar, bilimga chanqoq, sport bilan muntazam shug'ulanadigan sog'lom bolajonlarim bo'lasizlar.

Zamonangiz juda taraqqiy etib ketibdi. Har tomon fusunkor qiyofaga kirgan, qarab ko'zing to'ymaydigan shaharlar, obod qishloqlar, o'qib, bilimli, dono bo'lishngiz uchun hamma sharoitlar muhayyo etilgan zamonaviy maktablar, oliy ta'lif dargohlari, eh-he qaysi birini aytay! Barisi betakror, sehrli!

Keling, so'zimni lo'nda qilib, internet olamining yaxshi va yomon tomonlari haqida bilib olishingiz uchun bugungi kun Zumrad va Qimmatining yangi sarguzashtlariga sizlarni oshno etaman, xulosa esa o'zingizdan.

Ertakchi kampir chiqib ketadi.

Sahna yorishib, bir qo'liga chelak, supurgi va bir qo'liga kitob ko'targan Zumrad kirib keladi. Kitobni stol ustiga qo'yadi. Hovlini supurishga tushadi. Bir oz supurib, stulga o'tirib o'ziga o'zi so'zlay boshlaydi.



**Hamma ishlarni qilib bo'ldim. Nonushtani ham tayyorladim. Endi Qimmat opamni uyg'otay, halizamon oyim ham kelib qolsalar kerak. Bir dunyo mahsulot bilan, ayniqsa Qimmat opamga ajoyib sovg'alar bilan to'lib-toshib keladilar.**

(Yerga qarab, o'ylangancha) Zora, menga ham bittagina kitob olib kelsalar edi. Boshim osmonga yetardi. (O'ylanib, birdan sapchib tushib) Voy, nimalar deyapman. Qimmat opajon, turing, nonushtangiz tayyor.

Shunday degancha Zumrad yugurib sahna ortiga o'tib ketadi.

Qimmat shapaloqdek qo'l telefonida hirlinglagancha kim bilandir suhbatlashib kirib keladi. Qo'l telefonini o'chirib cho'ntagiga soladi-da, kerishib, qattiq esnaydi va har doimgi dag'dag'asini qila boshlaydi.



Zumra-a-a-a-ad, Nega meni barvaqt uyg'otding, alvasti, shirin uyqumni buzib? O'zi endigina uxlagan edim. (Zumradning sochiga chang solib, siltab tashlaydi) Bor, kashamni obke, yeyma-a-a-an, hap...

Zumrad.

- Opajon, ertalabki jismoniy mashqlarni bajarmaysizmi?

Qimmat.

- Kerakmas, yoqmayapti. (o'ylanib turib) Mayli, o'zi ozishib kerakligini aytishiyapti. Shunga... Ma, bundan kecha telegramdan ko'chirib olgan oxirgi musiqalarimni qo'y, maza qilib zaryadka qilay. (Qo'l telefonini Zumradga uzatadi) Imillama, tez bo'l.

Zumrad.

- Opajon, men buning parolini bilmaymanku?

Qimmat.

-Menga ber, telegramga ham kirishni bilmaysan, laqma. Zamondan orqada qolgan landovur, haliyam o'sha ertaklar olamida yuribsan, go'dak! Sen tenggi qizlar телеграмдаги гурппалардан allaqachon... (labini burib, Zumradni jag'ini tepaga ko'tarib ) o'z yo'llini topib bo'lgan.

Zumrad.

Yo'q, bilaman, opajon, tashlab yuborgan eski qo'l tele-foningizni ishlatib oldim, telegramga kir yapman, bir-biridan ajoyib, kitob do'konlarida bo'lмаган android kitoblarni xarid qilib maza qilib o'qiyapman. Axir kitob do'konlaridagi kitoblar falon ming so'm turadi, menda buncha pul bo'lmasa. Keyin-chi, kitobxon do'stlar topib, ular bilan kelajak orzular, oliygohlarda tahsil olish haqida suhbatlashyapmiz. Bilmaganlarimizni bir-birimizga o'rgatayapmiz...

Qimmat.

(Zumradning so'zini bo'lib) Bo'ldi. Ko'p javrama. Yangi yil bayramida javrashga balo bormi? Undan ko'ra maza qilib, o'yinga tushamiz. Bas, musiqani dadasidan!

Qimmat qo'l telefonidan musiqalardan birini qo'yib, raqsga tushib ketadi. Musiqa tugagach, stol ustidagi kitobni yerga uloq-tirib, o'zi stulga o'tiradi. Zumrad yugurib kelib kitobni qo'liga oladi.

Qimmat.

Voy, charchadim, hozir yiqilib tushaman. Yaramas, sen bilarkansan, har kuni ertalabki jismoniy mashqlarni bajarash kerak ekan. Sport bilan muntazam shug'ullanib, ishlab, yelib, yugurib, onam qancha ish buyurmasin, hammasini bajarishga kuch toparkansan-da, shuning uchun.

Zumrad.

Internet, kompyuter olamidan yaxshigina xabardorsiz. Endi-chi, sport bilan ham shug'ullaning, kitob o'qing, rasm chizing, teatrlarga boring, ma'naviy olamingizni boyiting, mana bu yil maktabni ham tamomlaymiz. Hademay oliyohga kirib, o'qishni tamomlab, bir kasbning boshini tutasiz.

Qimmat.

Boshimni qotirma, bor, nonushtamni olib kel. "Menyu"ni yozib ol.

(Zumrad cho'ntagidan daftar, qalam chiqarib yoza boshlaydi) Har doimgidek non o'rniga o'n dona bulochka, o'n dona qovurilgan tuxum, to'rtta kotlet, bir kosa qatiq, bir kosa asal, bir tovoq kasha, bir kosa qaymoq, ikkitagina xoddok, yana nima yesam ekan, ha, bir quti pankey ola kel, endi, yetadi, o'zi bugun uncha ishtaham yo'q. Dugonalarim bilan bir haftadan beri kafema-kafe yurib, Yangi yilni nishonlab yuribmiz. Shoshma, yozib ol, tag'in obedga yetmasdan ochqab qolmay, o'ntagina somsa ham olib kelaqol. Bir yarimtalik "pepsi"dan ham ikkita olib kelishni unutma.

Stol ustiga cho'kkalab olgan Qimmat hamma narsani to'kib-sochib yeya boshlaydi.

Zumrad qo'liga kitobini olib o'qib o'tiradi.

Tashqarida mashina ovozi eshitiladi. Eshik g'iyyillab ochiladi. Sahnaning bir chetidan qosh-ko'zi chaplab tashlangan o'gay ona chiqib keladi.

O'gay ona.

Yondiradi, kuydiradi, **Qimmatgina,**

Qoshi qaro, ko'zi qaro **Qimmatginam...**

(Yugurib keladi. Kitob o'qib turgan Zumrad o'rnidan irg'ib turadi. Uni itarib tashlab, Qimmatni quchoqlab oladi. Atrofini aylanib, avray boshlaydi. Zumrad chiqib ketadi.)

Oh, oh, o'zimning asalim, do'mbog'im, bulochkam, shokoladim, «shaurma»m, «lavash»im, «gamburger»im, «xoddog»im, koptogim, konfetim, keksim, do'mboqinna «panke»im... Yana nima deb erkalatsam bo'larkan... Ha, topdim, chipsim -o'zimni Qimmatim! Sog'inib ketdim!

Ona va qiz ikkalovi g'alati kulishadi.

Labini burib, ko'zi bilan Zumradga ishora qiladi..

Bezovtalanayotgan Zumradga qarab o'gay ona o'shqiradi.

O'gay ona.

Nimaga angrayib turibsan, beri kel, otangga o'xshamay ket. Yuklarni joylashtirdingmi?

Zumrad.

Ha, oyijon, hammasi joyida. Haligi, bugun kitobxonlik tanlovi bo'ladi, borsam bo'ladi?

O'gay ona.

Nonushta, tushlik, asrlik, shomlik, kechki ovqatlar tayyormi?

Zumrad.

Ha, oyijon, tayyor.

O'gay ona.

Yaramas, betga chopar.

Senlarni boqaman, deb

Turkiyaday joydan tonna-tonna

yuk ko'tarib kelsamu,

sening beparvoligingni qara.

Kitob o'qishga balo bormi?

Hozir sochingni bittalab

yulib olmasammi...



O'gay ona qahr bilan Zumradga tashlanadi.

Zumrad.

Voy dod, otajon...

Otasi yugurib keladi.

Ota.

Yur, qizim,

Ota va qiz chiqib keta boshlaydi.

O'gay ona.

Ha, ota-bola qayerga yo'l oldingizlar? (sekingina) Chol, yo qizingni adashtirib kelmoqchimisan?

Ota. (Qad rostlab)

Yo'q, u endi adashmaydi. Qizimni yosh kitobxonlar tanloviga olib ketyapman. Adashadigan zamonlar o'tib ketdi. Kitob - insonni adadashishiga yo'l qo'ymaydi. Kitob - beba ho xazina, u bor ekan, inson bolasi hech narsaga zoriqmaydi, hech narsa yo'qotmaydi. Kitob o'qigan, ilm yo'lidan ketgan odam murod-maqsadiga yetadi. Undan ko'ra qizingni tarbiyalasang bo'lardi. Qo'lidan telefonini ol-da, kitob ber. Qiz bolani telefon emas, hunar va ilmga o'rgatish kerak.

Zumrad va otasi chiqib ketadi.

Qimmat va onasi: (Ularning ortidan qichqiradi)

Ketsanglar, ketaveringlar, ona-bola ikkimiz senlarsiz bayram qilamiz, maza qilib raqsga tushamiz. Vah-ha-ha...

Qimmat. (Birdan abzoyi buzilib)

A-a-a-a! Mama, papash gde? A tak, men ham boraman.

O'gay ona. Voy, jismoniy tarbiya to'garagigami, yo kompyuter saboqlarini olgani borasanmi? Ular senga nimaga kerak?

Qimmat.

Nimalar deb aljirayapsiz, mama? Cholingiz qizini "Magek cite"ni aylantirgani olib ketdi. Istirohat bog'iga boraman, «morojniye» yeyman. Boraman dedimmi, boraman...

O'gay ona.

Yashshamagur ota-bola, o'la-o'lguncha menga kun bermas

ekansanlar. Hm, sen chol qizingni adashtirib kelmagin-chi, ko'rasan mendan ko'radiganingni. Endi buni qanday ovutaman? (bolalarga qarab) Iltimos, sizlar yordam beringlar. (bolalardan biri, "o'yinga tushib bering", deydi).

Ha, topdim, hozir boplaymiz. Telefoningdan zo'r musiqa qo'y, bir maza qilib raqsga tushaylik.

Anavi bolalarni ham o'yinga taklif etamiz. Qani ketdik.

Musiqa yangrab, o'gay ona arazlab o'tirgan Qimmatni atrofini aylanib raqsga tushadi.

Qimmat.

Bo'ldi, oyi, undan ko'ra kutubxonachiga qo'ng'iroq qilib, Zumradning hozir qayerga ketganini bilib olaylik.

O'gay ona.

To'g'ri aytding, qani, o'sha kampirning raqamini ter. Bu safar Zumradga beradigan sandiq to'la sovg'asini "otmen" qilamiz.

Qimmat.

Qanday qilib, axir?

O'gay ona.

Yegan og'iz uyatli. Og'ziga dollar bilan uramiz. Qarabsanki, Zumradxonga bo'm-bo'sh qutini sudratib yuboradi. Ki-ki-ki.

Qimmat.

Iya, oyi, bu – korrupsiyaku?! E, mana, kampir go'shakni ko'tardi.

Kutubxonachi

"Labbay, eshitaman. Yangi yilingiz bilan" degan ovoz eshitiladi.

O'gay ona.

Alo-u-u, rahmat, kampirsho, qalaysiz? Yangi yilda bizga qanday sovg'a atadingiz?

Kutubxonachi.

Sovg'a bo'lsa, sovg'a-da. Uzr, tanimayroq turibman?

O'gay ona.

Haligi, men – Fazilatxonim bo'laman.

Kutubxonachi.

Fazilatxonim, qizlaringiz yaxshimi?

O'gay ona.

Ha, ha, yaxshi. Anavi Zumrad siznikiga, yo'g'-ay, kutubxo-naga borib qolmadimi, mabodo?

Kutubxonachi.

Xabaringiz yo'qmi? Zumradxon yosh kitobxonlar tanlovida g'olib bo'lib, katta sovg'a - mashina minib boryapti.

O'gay ona.

Voy-y-y-y-y, nima-a-a-a-a?! Yo'q, yo'q, bizga uning sovg'asi kerakmas.

Kutubxonachi.

Zumradday kitobsevar qiz – bunga loyiq! Axir, bilimli insonni taqdirlamasak kimni taqdirlaymiz?

O'gay ona.

Voy sho'rim, biz bechoralarga kim mashina sovg'a qiladi? A-a-a-aa! (Baqiradi va ovozini birdan o'zgartiradi) Yoki, Zumradga sovg'a olish sehrini o'rgatdingizmi, ayting, og'zingizga siqqanini beraman? Mening arzandam ham mashina minishi kerak.

Kutubxonachi.

Buning uchun kitob o'qish kerak. Ustozlar o'gitiga amal qilish kerak...

Qimmat. (Onasining qo'lidan telefonni yulqilab olib)

Vaqillama, kampir, nima qilishni o'zimiz yaxshi bilamiz. Bizga aql o'rgatma! (Shunday deb tugmani bosib qo'yadi).

O'gay ona.

Indamay tur, qizim, otang kelsin, seni ham tanlov olib borib,  
adashtirib keladi. Do'm bog'im, sen ikkita mashina minib kelasan.

Qimmat.

A-a-a-a-a! Men ham boraman. Boraman dedimmi, boraman.

Yig'layapmanku! Bir narsa berib ovutsangiz-chi, oyijon.

O'gay ona.

Hozir senga Qorboboning xo'rozqandidan beraman...

Qimmat.

Xo'rozqand emas, sovg'a, oyi-i-i-i-i. O'qish kerak edi-da Zumrad aytganday.

O'gay ona.

To'g'ri aytasan, o'shani... hm... hozir yonimda bo'lib qolsa edi

(bo'yniga marjonday taqilgan archa zarini qo'liga olib ) mana shunday, mayda-mayda qilib tashlardim. Senga esa Qorboboning sovg'asi mana!

Hiringlagancha o'gay ona yugurib kelib, cho'ntagidan xo'rozqand chiqarib beradi. Qimmat og'zini chapillatib, xo'rozqandni shimiyydi.

O'gay ona

Qizim, chol aldadi, tanlov qayerda, qizini adashtirib keladi. Mana, senga, hu-hu-hu, Qorqizning, ya'ni o'zimning sovg'am – eng so'nggi rusumdagi qo'l telefon. Bilganingday qilib internetga kiraverasan, asalim.

Qimmat.

Vaaaay! Konkret! Snegurochka mamichkam, gap yo'q sizga! (sahnani aylanib yurarkan, o'ziga o'zi gapiradi) Zulya, dugonajon, ko'rib qo'y, endi senikidan ham zo'r "sotka"m bor.

Qimmat yugurgancha tashqariga chiqib ketadi. Onasi uning ortidan qarab qoladi.

O'gay ona.

Ha-a-a, (chuqur ho'rsinib) qizni avrab bo'ldim. Endi bozordagi "klent"larimni avray. Yangi yil bayramining davomi bozorda. Chau!

O'gay ona chiqib ketadi.

Tantanavor musiqa yangrab, Zumrad va otasi kirib keladi. Qizning qo'lida mashina kaliti. Sahnadagi monitorda “Prezident sovg‘asi” – “Spark” mashinasi aks etadi.

O‘gay ona.

**Hoy, chol, bor mening ham qizimni adashtirib kel...**

Qimmat.

Yo‘q, oyijon, shuncha yil adashib keldim. Kechir, Zumrad singlim. Kitob o‘qib, internetdan to‘g‘ri foydalanib, murodga yetding. Seni bugungi ulkan mukofot bilan tabriklayman!

Zumrad.

**Opajon, mana bu kitob mening eng sevimli asarim, uni yangi yil sovg‘asi sifatida sizga sovg‘a qilaman.**

Zumrad kitobni Qimmatga topshiradi.

**Barcha qahramonlar barobar:**

Kitob o‘qing, murodga yeting! Yangi yilni yangi kitoblar, yangi orzular bilan kutib oling!

Ota:

Osmondadir, — demang, siz, oftob,  
Quyosh qo‘lda bu axir — kitob!

Yuksaklardan taralar xitob:

Kitob o‘qib, murodga yeting!

O‘gay ona:

Har harfidan hayot beradi,  
Beminnat non, novvot beradi,  
Tuganmas baxt-omad beradi,  
Kitob o‘qib, murodga yeting!

To‘ybolaga toy emas, kitob,  
Hadya eting oy emas, kitob.  
Boy — hammadan boy emas, kitob,  
Kitob o‘qib, murodga yeting!

Zumrad:

Sharqqa donish darvoza ilming,  
Dunyolarga ovoza ilming,  
Ellar aro e’zoza ilming,  
Kitob o‘qib, murodga yeting!

Qimmat:

Ma'naviyat porloq yulduzi,  
Ezgulikning so'nmas gulyuzi.  
Yurtboshimiz tashabbus – so'zi:  
Kitob o'qib, murodga yeting!

Internetga sho'ng'ima, g'avvos,  
Tashlab qo'yma, kitobni shovvoz!  
To'rga tushib solmagan uvvos...  
Kitob o'qib, murodga yeting!

Kutubxonachi:

Mualliming so'ylar hokisor,  
Kelajaging o'laydi bedor.  
Der; Lochinday parvoz qil, shunqor,  
Kitob o'qib, murodga yeting!

Ertakchi ayol

Mana, bolajonlar, bo'lib o'tgan voqealarni tomosha qildingiz. Bundan to'g'ri xulosa  
chiqarasiz degan umiddamiz.